

Haqnazarov Shavkat Haqnazorovich,
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy sudlov Akademiyasi
Kasbiy ko‘nimalar kafedrasi mudiri,
dotsent, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

RAQAMLI SUD VA TERGOVNI TASHKIL ETISHNING AHLOQIY TAMOYILLARI: O‘ZBEKISTON VA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamli transformatsiya jarayonida raqamli sud va tergovni tashkil etishning ahloqiy (etiket) tamoyillariga doir nazariy va amaliy masalalar muhokama qilinadi. Xususan, tadqiqotda sud jarayonlarini raqamlashtirish va raqamli tergovni olib borishda tergov amaliyotining uslubiy ta‘minotlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Tadqiqotda raqamli sud va tergov faoliyatini ahloq qoidalarini joriy etish bo‘yicha AQSH, Yevrova davlatlari va O‘zbekiston Respublikasi tajribalari, shu bilan birga bu boradagi xalqaro standartlar tahlil etilgan.

Tadqiqotchi raqamli transformatsiya jarayonida raqamli su va tergovning ahloqiy (etiket) tamoyillarini belgilash prinsipial darajada muhim ahamiyatga ega degan, g‘oyani ilgari suradi. Shu bois, tergov amaliyotini ilg‘or xorijiy amaliyotlarga moslashtirish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Muallif raqamli muhitdagi sud jarayonlari hamda tergov faoliyatida shaxsga doir ma‘lumotlarni muhofaza qilish uchun avvalo, raqamli dalillar bilan ishlashning ahloqiy (etiket) ta‘moyillari belgilanishi zarur deb hisoblaydi.

Maqola raqamli transformatsiya jarayonida raqamli sud va tergovni tashkil etishning ahloqiy (etiket) masalalariga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlar, nazariyotchi olimlar va amaliyotchilarning fikr-mulohazalari hamda milliy hamda xorijiy davlatlar qonunchiligi tahlillari asosida tayyorlangan.

Kalit so‘zlar: *raqamlashtirish, raqamli sud, raqamli tergov, raqamli ahloqiy (etiket) qoidalari, qonuniylik, adolat, shaffoflik, erkinlik, javobgarlik.*

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические и практические вопросы этических (этикетных) принципов организации цифрового суда и расследования в условиях цифровой трансформации. В частности, в исследовании выдвигаются предложения по совершенствованию

методического обеспечения следственной практики при цифровизации судебных процессов и проведении цифрового расследования.

В работе проанализирован опыт США, европейских государств и Республики Узбекистан по внедрению этических норм в деятельность цифрового суда и расследования, а также рассмотрены международные стандарты в данной сфере.

Автор выдвигает идею о том, что определение этических (этикетных) принципов цифрового суда и расследования в условиях цифровой трансформации имеет принципиально важное значение. В связи с этим предлагаются рекомендации по адаптации следственной практики к передовому зарубежному опыту.

Автор считает, что для обеспечения защиты персональных данных в цифровой среде судебных процессов и следственной деятельности прежде всего необходимо определить этические (этикетные) принципы работы с цифровыми доказательствами.

Статья подготовлена на основе анализа научно-практических исследований по вопросам этики организации цифрового суда и расследования в условиях цифровой трансформации, мнений теоретиков и практиков, а также анализа национального и зарубежного законодательства.

Ключевые слова: *цифровизация, цифровой суд, цифровое расследование, цифровые этические (этикетные) нормы, законность, справедливость, прозрачность, свобода, ответственность.*

Abstract

This article discusses theoretical and practical issues related to the ethical (etiquette) principles of organizing digital courts and investigations in the context of digital transformation. In particular, the study puts forward proposals for improving the methodological support of investigative practice in the digitalization of judicial processes and the conduct of digital investigations.

The research analyzes the experiences of the United States, European countries, and the Republic of Uzbekistan in implementing ethical standards in digital court and investigative activities, as well as relevant international standards in this field.

The author advances the idea that defining ethical (etiquette) principles for digital courts and investigations is of fundamental importance in the process of digital transformation. Therefore, recommendations are provided for aligning investigative practices with advanced foreign experience.

The author argues that, in order to ensure the protection of personal data in digital judicial processes and investigative activities, it is прежде всего necessary to establish ethical (etiquette) principles for handling digital evidence.

The article is based on an analysis of scientific and practical research on ethical issues in organizing digital courts and investigations in the context of digital transformation, as well as on the views of scholars and practitioners and an examination of national and foreign legislation.

Keywords: *digitalization, digital court, digital investigation, digital ethical (etiquette) rules, legality, justice, transparency, freedom, responsibility.*

O‘zbekiston Respublikasida raqamli transformatsiya jarayonlarini faol realizatsiya qilinishi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlanishi bilan belgilab berildi[1]. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakatda Internetdan foydalanuvchilar soni 2016 yilda 12,1 mln. bo‘lgan bo‘lsa, 2022 yilga kelib ikki barobarga, ya’ni 24 mln.dan oshgan. Ushbu holat mamlakat fuqarolarning qariyb 66% to‘g‘ri kelmoqda[2]. Shu bilan birga, mamlakatdagi aholi yashash maskanlari hududining Internet tarmog‘i bilan ta’minlanganlik darajasi ham 2016 yilda 28%ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2023 yilda 98% ga yetgan. Mazkur holatlar mamlakatda faol raqamli transformatsiya jarayonlari amalga oshirilayotganligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ta’kidlash joizki, bugungi kunda raqamli texnologiyalarga bo‘lgan talab nafaqat mamlakatda, balki butun dunyo bo‘ylab juda tez suratlar bilan o‘sib bormoqda[3]. Bu borada, mehnat bozorlari hamda ish haqi to‘lashning onlayn shakllariga o‘tilishi davlat va nodavlat tashkilotlariga fuqarolarning shaxsiy hayoti dahlsizligiga doir ma’lumotlardan keng foydalanish, ularni kuzatish hamda nazorat qilish imkoniyatini ham bermoqda.

Ushbu holatlar manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq psixologik va huquqiy dilemmalarni yuzaga keltirishi, tabiiydir. Bunda, bir tomondan fuqarolarning shaxsiy hayot dahlsizligi va shaxsga doir ma’lumotlarning muhofaza qilinishi bilan bog‘liq konstitutsiyaviy huquqlari ustuvorlik qilsa, boshqa tomondan davlat va nodavlat tashkilotlarining manfaatlari hamda xavfsizlikka doir masalalar huquq normalari o‘rtasidagi turli ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Mazkur vaziyatda qonun normalari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash, tenglik, mahfiylik, adolatlilik va shaffoflikni ta’minlash etikaning asosiy vazifalaridan biri sanaladi.

Ta’kidlash joizki, raqamli transformatsiya jarayonlari huquqni muhofaza qilish faoliyatiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Xususan ushbu holatlar tergov jarayonidagi raqamli muhitdagi munosabatlarni tartibga solishda yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Bu borada qonun chiqaruvchi va uni qo‘llovchining tajribasizligi nazariya oldiga sohaga doir ilmiy tadqiqotlarni hamda ilg‘or xorijiy amaliyotlar va xalqaro standartlarni o‘rganish vazifasini qo‘ymoqda.

Ahloqiy (etiket) muammolar

Ijtimoiy hayotga bir nazar tashlansa, inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar nafaqat qonun normalari bilan, balki muayyan ahloqiy me’yorlar asosiga qurilganiga ham guvohi bo‘lamiz. Ahloqiy me’yorlar o‘zaro hurmat, e’tibor, ishonch, xis-tuyg‘ular, ahloqiy bilim, tasavvur va mushohadalar yoxud boshqa ahloqiy qadriyatlar ustiga quriladi. Odatda, ushbu normalar qonun bilan tartibga

solinishi majburiy bo'lmagan holatlarga nisbatan tadbiriq etiladi. Demak, ushbu me'yorlar qonun normalarini ishlab chiqishda qaysidir ma'noda metodologik asos vazifasini ham o'taydi[4].

Tabiiyki, ahloqiy normalar ommaviy foydalanishda bo'lgan vertual dunyo me'yorlariga ham bevosita aloqadordir. Sababi, raqamli transformatsiya jarayolari ijtimoiy hayotning barcha sohalariga, xususan, har bir insonning kundalik hayoti, biznesi, jamiyat va davlat munosabatlariga bevosita ta'sir etmoqda. Mazkur holatlar hayot kechirish va faoliyat yuritishning yangicha shakllari hamda qadriyatlarini yuzaga keltirmoqda.

Raqamli transformatsiya jarayonida yuzaga kelayotgan ahloqiy muammolar sud va tergov jarayonida shaxsga doir ma'lumotlar dahlsizligini ta'minlash bilan bevosita bog'liqdir. Qoida tariqasida, ushbu ma'lumotlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- shaxsning ismi-sharifi, tug'ilgan yili;
- ijtimoiy sug'urta nomeri;
- pasport yoki haydovchilik guvohnomasi rekvizitlari;
- ijtimoiy, iqtisodiy va moliyaviy holati;
- bank hisob-raqami, kredit yoki plastik kartalari nomerlari;
- PIN-kodlar, elektron imzo va/yoki parollar;
- biometrik yoki genetik ma'lumotlar;
- kasallik tarixi yoxud tibbiy xizmat ko'rsatish paytida to'plangan har qanday ma'lumotlar;
- jinsi, jinsiy hayoti yoki jinsiy moyilligi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- jinoiy hulq-atvori to'g'risidagi ma'lumotlar;
- sudlanganlik holati;
- kadrlar bo'limidagi hodimlar haqidagi ma'lumotlar;
- ish haqi, mehnatga layoqatsizlik yoki nogironlik holati haqidagi ma'lumotlar;
- abonent raqami;
- uy manzili;
- GPS joylashuvi ma'lumotlari;
- GPS trayektoriyalari,
- IP-manzili (Mac-manzili);
- telekommunikatsiya tizimlaridan olingan joylashuv ma'lumotlari;
- elektron pochta manzili;
- shaxsiy qiziqishlarga doir ma'lumotlar;
- shaxsiy yoki xulq-atvor stereotiplari;
- fotosurat yoki videolar;
- irqiy yoki etnik kelib chiqishi, diniy yoki falsafiy e'tiqodlari haqidagi ma'lumotlar;
- kasaba uyushmalariga a'zolik ma'lumotlari;
- kommunal xizmatlar uchun to'lovlarga doir ma'lumotlar[5].

Ushbu ma'lumotlar shaxsni (tovlamachilik) yoki uning moliyaviy mablag'larini boshqarish huquqini yoxud jabrlanuvchining shaxsidan foydalanish imkoniyatini berishi (jabrlanuvchini jinoyatchi qilib ko'rsatishi ehtimoli yuqoriligi) bilan ham, o'ta havflidir.

Bugungi kunda, shaxsga doir ma'lumotlarning dahlsizligi ta'minlash nafaqat mamlakatda, balki butun xalqaro hamjamiyatni jiddiy tashvishga solayotgan muammolardan biri sanaladi. Bu borada, O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan bo'lsa-da, biroq mazkur Qonun tezkor-qidiruv, razvedka va kontrrazvedka faoliyati, jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquq-tartibotni saqlash jarayonida, shuningdek jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish doirasida olingan shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish chog'ida yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi[5].

Bundan tashqari, raqamli transformatsiya jarayonlarining faollashuvi jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatida qo'llaniladigan raqamli texnologiyalar doirasining kengayishiga ham sabab bo'lmoqda. Tergov organlari va sudlar faoliyatni bosqichma-bosqich raqamlashtirilishi[6] hamda faoliyatga raqamli texnologiyalarni keng joriy etishlari[7; 8] ularni qo'llash bilan bog'liq ahloqiy (etiket) qoidalarni belgilash zaruriyatini ham yuzaga keltirmoqda.

Amaldagi tergov faoliyati uchun ishlab chiqilgan ahloqiy qoidalar moddiy olamdagi munosabatlarni tartibga solish uchun mo'ljallanganligi bois, ularni raqamli muhitga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri tatbiq etilishi ko'zlangan natijani bermaydi. Boisi, ushbu qoidalar raqamli muhitdagi munosabatlarning spetsifik xususiyatini to'laqonli aks ettirmaydi. Shu bois, qonunni qo'llovchi o'z ichki ishonchi va intellektual salohiyatiga tayanishiga majbur bo'ladi.

Tahlil

So'nggi yillarda O'zbekistonda sud-huquq tizimini modernizatsiya qilish jarayonida uning faoliyatini raqamlashtirish ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Bu borada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib, sud tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Ushbu islohotlar doirasida sud ishlarini avtomatlashtirish, elektron hujjat aylanishi va onlayn xizmatlar joriy etildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 sentyabrdagi "Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4818-son Qarori qabul qilindi Qarorda belgilangan vazifalarning ijrosi sudlar faoliyatining xalqaro standartlar va rivojlangan davlatlar ilg'or yutuqlari darajasida yana-da ochiq hamda shaffof bo'lishini ta'minlaydi.

Qaror bilan sudlar faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha 2021 yilning 1 yanvaridan boshlab, keyingi bos-qichlarda amalga oshirilishi lozim bo'l-gan bir qator ustuvor vazifa belgilab berildi. Xususan:

– sudlar faoliyatida "Adolat" axborot tizimlari kompleksi joriy etiladi. Mazkur tizim orqali barcha davlat hokimiyati organlari, xo'-jalik bosh-qaruvi organlari va advokatlar tomonidan sudlarga da'vo, ariza va shikoyatlar faqat elektron shaklda taqdim etiladi va bu bilan sudlarda qog'oz shaklida ish yuritishdan bosqichma-bosqich voz kechiladi. Shuningdek, mazkur ti-zim afzalliklari orqali manfaatdor shaxslar tomonidan da'vo, ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish jarayonini onlayn tarzda kuzatib borish, sud majlisi ishtirokchilari tomonidan ma'lumotlar va hujjatlarni elektron shaklda yuborish, sud hujjatlarini avtomatlashtirilgan ravishda shakllantirish imkoniyati yaratiladi;

– barcha sudlarda sud majlislari taraflarning iltimosnomalari va sud majlisida raislik qiluvchi sudyaning roziligi bilan, audioyozuvdan foydalangan holda, qayd etib boriladi va sud majlisi bayonnomalari ushbu tizimdan foydalangan holda shakllantiriladi;

– apellyatsiya va kassatsiya instansiya sudlarida ishlar sudyalarda o‘rtasida avtomatik ravishda taqsimlanadi;

– sud qarorlari taraflarga elektron tarzda, ularning iltimosnomalari bo‘yicha esa, qog‘oz shaklida taqdim etiladi;

– fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga yana-da qulaylik yaratish maqsadida, 10 ga yaqin interaktiv xizmatlar ko‘rsatish yo‘lga qo‘yiladi;

– mobil dastur orqali sud majlislarida masofadan turib, ya‘ni sud binosiga kelmasdan videokonferensaloqa rejimida ishtirok etish imkoniyati yaratiladi;

– sud ishlari davlat arxiviga elektron shaklda taqdim etiladi;

– sud majlisi vaqti va joyi haqida sud majlisi ishtirokchilari SMS xabari orqali bepul xabardor etiladi;

– Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirishning 2020–2023-yillarga mo‘ljallangan dasturi tasdiqlandi;

– sud axborot tizimlari 28 ta davlat organlari va tashkilotlari, Prezident Virtual qabulxonasi va Bosh vazirning Tadbirkorlik murojaatlarini ko‘rib chiqish qabulxonalari axborot tizimlari bilan ulanadi.

Yaratiladigan mazkur imkoniyatlar sud majlisida ishtirok etuvchi taraflarga qo‘shimcha afzalliklar yaratadi. Sud binolariga kelib-ketish uchun sarflanadigan xarajatlarni kamaytiradi. Shuningdek, fuqarolarning vaqti tejaladi va sudga murojaat qilish tartibi osonlashadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 yanvardagi “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-11-son Farmoni bilan 2023 — 2026 yillarga mo‘ljallangan sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasi tasdiqlandi.

Strategiya O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari hamda istiqbolli vazifalarini belgiladi, shuningdek, sohaga ilg‘or xalqaro standartlarni yana-da keng joriy etish uchun asos bo‘lib xizmat qildi. “Inson qadri uchun” g‘oyasi asosida chinakam adolatli sud tizimini shakllantirish, Sudlar faoliyatini to‘liq raqamlashtirish, sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, Sudyalarning mustaqilligi va daxlsizligi kafolatlarini kuchaytirish, Sud qarorlarining qat‘iy ijrosini ta‘minlash va inoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat ijroiya qonunchiligini insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirish siyosatini izchil davom ettirish. “Xabeas korpus” institutini yana-da rivojlantirish orqali tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish vazifalari belgilandi.

Yana bir katta ahamiyatga molik islohotlardan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sudlar faoliyatiga sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta‘minotini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 21.08.2025 yildagi PF-140-son Farmoni hisoblanadi.

Farmonda “raqamli sud” g‘oyasi alohida o‘rin egallaydi. Bu konsepsiya asosida:

- sud ishlari va hujjat aylanmasi bosqichma-bosqich to‘liq elektron tizimga o‘tkaziladi;

- sud majlislari masofadan turib kuzatilishi mumkin bo‘ladi;

- fuqarolar va advokatlar sud hujjatlariga onlayn tarzda murojaat qilishi uchun qulay platformalar yaratiladi.

Natijada sud jarayonlarida shaffoflik kuchayadi va odamlar sudga borib vaqt yo‘qotmasdan elektron xizmatlardan foydalanishi mumkin bo‘ladi.

Dunyo tajribasida sud tizimlarida sun‘iy intellekt qo‘llanilishi tobora ommalashmoqda. O‘zbekistonda ham bu jarayon PF-140 orqali yo‘lga qo‘yiladi. Farmonga ko‘ra, SI (sun‘iy intellekt) yordamida:

- ishlarni taqsimlashda avtomatlashtirish amalga oshiriladi;

- qonunlar va sud amaliyotini tahlil qilish imkoniyatlari kengayadi;

- sudyalarga qaror qabul qilishda huquqiy yordamchi tizim sifatida xizmat qiladi.

Bu esa inson omilini kamaytiradi va qarorlar adolatliroq hamda asosliroq bo‘lishiga xizmat qiladi.

Farmonda belgilab qo‘yilgan yana bir muhim yo‘nalish – elektron arxiv modulini yaratishdir. Uning orqali:

- barcha sud qarorlari va hujjatlari yagona elektron bazada to‘planadi;

- sud amaliyotini tahlil qilishda katta ma‘lumotlar (Big Data)dan foydalanish imkoni paydo bo‘ladi;

- fuqarolar sud qarorlariga osonlikcha kirish imkoniga ega bo‘ladi.

Bu modul nafaqat fuqarolar uchun, balki tadqiqotchilar va huquqshunolar uchun ham qimmatli manbaga aylanishi kutilmoqda.

Farmonga ko‘ra, sudyalalar va sud apparati xodimlari zamonaviy raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellektdan foydalanish bo‘yicha doimiy ravishda o‘qitiladi. Shu maqsadda:

- maxsus o‘quv kurslari tashkil etiladi;

- xorijiy tajribani o‘rganish yo‘lga qo‘yiladi;

- “kiber huquq” sohasida ilmiy tadqiqotlar amalga oshiriladi.

Bu sudyalarning bilim va ko‘nikmalarini zamon talabiga moslashtirishga xizmat qiladi.

PF-140-sonli farmon ijrosi orqali:

- fuqarolarning sudga ishonchi ortadi – chunki jarayonlar ochiq va adolatli bo‘ladi;

- korrupsiya xavflari kamayadi – ish taqsimotida inson omili minimallasadi;

- sud ishlari ko‘rib chiqish muddati qisqaradi – elektron tizim orqali barcha jarayonlar tezkorlashadi;

- xalqaro reytinglarda mamlakatimiz mavqei oshadi – sud mustaqilligi va raqamlashtirish ko‘rsatkichlari yuksaladi.

Raqamli tergov faoliyatidagi munosabatlarni to‘g‘ri tartibga solinishi ta‘minlash uchun avvalo, raqamli dalillar bilan ishlashning ahloqiy tamoyillari belgilanishi zarur. Mazkur tamoyillar raqamli dalillar bilan ishlashda yuzaga

kelayotgan xavfni minimallashtirish, faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash hamda ishonchlilik va javobgarlik[9] masalalarini ilmiy asoslangan usul va vositalar orqali hal etish imkonini beradi. Bundan tashqari, raqamli dalillar bilan ishlashning ahloqiy tamoyillarini belgilash orqali tergovga taaluqli bo'lmagan shaxsga doir ma'lumotlarni muhofaza qilinishi ta'minlanadi.

O'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, 66 % respondentlar tergov ishiga aloqador bo'lmagan shaxsga doir ma'lumotlarni jinoyat ishi materiallaridan ajratib olish zarur, degan fikrni qo'llab-quvvatlagan[10]. Bu borada, xorijiy ilg'or amaliyotlar tahlil qilinganida ushbu institut raqamli tergov faoliyatida mahfiylik (shaxsga doir ma'lumotlar)ni ta'minlash maqsadida joriy etilganligi aniqlandi[11].

Raqamli dalillar bilan ishlashning ahloqiy (etiket) qoidalarini muayyan ish yuzasidan raqamli dalillarni to'plash, tekshirish hamda baholashda ekspert, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudlar tomonidan amal qilinadigan hujjatlar qoidalarini belgilaydi. Mazkur qoidalar raqamli tergov muhitidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilganligi bois, spetsifik xususiyat kasb etadi.

Ta'kidlash joizki, raqamli dalillar o'ta ta'sirchan xususiyatga ega. Shu sababli, ularni to'plash va tekshirishda qonunni qo'llovchi xolislik ta'minlash bilan bog'liq muammolarga duch keladi. Boisi, katta hajmdagi raqamli ma'lumotlarni tekshirish va tahlil etish, ochiq manbalar va sun'iy intellektdan foydalanish hamda raqamli manbalardan ish uchun ahamiyatli raqamli dalillar va ma'lumotlarni chiqarib olish, saqlash va tekshirish qonunni qo'llovchidan soha bo'yicha muayyan tajriba va mas'uliyatni talab etadi. Xorijiy davlatlarda ushbu masalalar ahloqiy aspektlar doirasida hal etilgan.

Xalqaro amaliyotda ham sud muhokamasi jarayonida raqamli dalillarni qanday usulda to'plangani va tekshirilgani muhim ahamiyat kasb etadi. Sudlar ayblovni qo'llab-quvvatlayotgan tomondan ushbu dalillar qanday usulda chiqarib olinganligini izohlab berishni hamda namoyish (prezentatsiya) qilishni talab qilish huquqiga egadirlar[12]. Ushbu institut odil sudlovni amalga oshirishda holislik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida joriy etilgan. Shu bois, ekspert, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror har qanday turdagi raqamli dalillarni sudga taqdim etishda puxta tayyorgarlik ko'radi. Shu bilan birga, ushbu subyektlar raqamli dalillar tadqiqotiga doir har qanday noo'rin yoki ishonchliligi tasdiqlanmagan fikrlarni bildirishdan o'zlarini nazorat qiladilar.

Qonunning "nazorat qilish" funksiyasi unga rioya etilishini ta'minlash vositasi hisoblanadi. Aks holda, qonun normalari avvalo, qonunni qo'llovchi tomonidan buziladi. Tergov jarayonida mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan ahloqqa zid harakatlarni yoki qonun buzilishlarini oldini olish hamda bartaraf etish uchun ham avvalo, raqamli muhitdagi ahloqiy normalar doirasini aniq belgilanishi maqsadga muvofiqdir.

Ta'kidlash joizki, raqamli tergovni amalga oshirish hamda xavflarni minimallashtirishda protsess ishtirokchilarining ishonchi juda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, tergovchi raqamli texnologiyalarni qo'llashda xavfsizlik va ishonchlilikni ta'minlash e'tibor qaratishi zarur. Tadqiqot jarayonida mazkur holat

bo'yicha bir qator xorijiy ilg'or amaliyotlar tahlil etildi. Bu borada, AQSH, Angliya hamda Yevropa davlatlarda dastlabki tergov (politsiya) va sud jarayonlarida shaxsiy ma'lumotlarning dahlsizligini ta'minlashga qaratilgan bir qator hujjatlar o'rganildi[13].

Raqamli tergovning bosh ta'moyillari haqida so'z ketganda, Ien Ferguson (I.Ferguson), Karen Reno (K.Renaud), Sara Wilford (S. Wilford) va Alaster Ayrans (A. Irons) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega (1-jadval). Bu borada, ilgari surilgan tamoyillar mamlakatdagi tergov faoliyatini takomillashtirishda samarali natija berishi mumkin [14]. Ushbu tamoyillar Tergovning asosiy doktrinasi (the Core Investigative Doctrine – CENTREX, 2015), Jinoyat protsessi va tergov to'g'risidagi Qonun (the Criminal Procedure and Investigations Act – CPIA) va Politsiya katta zobitlari Assotsiatsiyasining raqamli dalillar uchun "Eng yaxshi amaliy qo'llanma"si (ACPO) asosiga qurilgan.

Ushbu tamoyillar tergovchilar uchun mo'ljalangan bo'lib, bunda raqamli muhitda tergovni olib borishning umumiy qoidalari ko'rsatilgan. Misol uchun, IG3-bandda belgilangan qoidalar ishga aloqador uchinchi tomonlar uchun amal qiladi. Unga ko'ra, agar tergovchi boshqa shaxslar (aloqa provayderi)da ishga aloqador materiallar mavjudligi haqida ma'lumotga ega bo'lsa, ushbu ma'lumotlarni belgilangan tartibda (so'rovnoma yuborish orqali) saqlanishini ta'minlash hamda bu yuzasidan habardor qilish bo'yicha ishlarni tashkil etishi lozim. Bundan tashqari, IG5-bandda o'rnatilgan qoidalar ham tergov faoliyatini takomillashtirishda alohida ahamiyat ega. Unga ko'ra: "ish uchun ahamiyatli axborotlar muayyan shaklda qayd etilmaganligi aniqlangan taqdirda, tergovchi ushbu materiallarni saqlanishi va chiqarib olinishini ta'minlashi zarur.

Raqamli dalillarga nisbatan qo'llanilayotgan har qanday jarayonlarni nazorat jurnali yoxud boshqa qaydlarda saqlanishini ta'minlash lozim. Mustaqil uchinchi shaxs (aylanuvchi, advokat, sud) ushbu jarayonlarni o'rganishi va natijalarni takrorlash imkoniyatiga ega bo'lishi kerak"[15].

Raqamli tergov jarayonida inson huquqlarini hurmat qilinishini ta'minlash shaxsga doir ma'lumotlarni muhofaza qilish orqali amalga oshiriladi. Tergovchi ushbu ma'lumotlarning mahfiylikini ta'minlashga alohida ahamiyat qaratishi zarur. Bu borada, ISO/MEK 29100:2011 xalqaro standartida belgilangan ahloqiy ta'moyillardan metodologik asos sifatida foydalanish mumkin (2-jadval)[16].

Ilg'or xorijiy amaliyotlarda shaxsga doir ma'lumotlarning mahfiylikini ta'minlash borasida huquqni qo'llovchiga nisbatan muayyan talablar o'rnatilgan. Unga ko'ra, tergovga jalb etilgan kompyuter texnikasi sohasidagi mutaxassis mahfiylikning shakllari va ta'riflari bilan, shu bilan birga shaxsga doir ma'lumotlarni to'plash va ulardan foydalanishga oid huquq va majburiyatlar bilan ham tanish bo'lishi[17] zarur.

Ien Ferguson (I.Ferguson), Karen Reno (K.Renaud), Sara Wilford (S. Wilford) va Alaster Ayrans (A. Irons)lar tadqiqotlarda raqamli tergovning 10 ta asosiy ahloqiy tamoyillari taklif etilgan (3-jadval). Biroq, ushbu tamoyillarni qabul qilishda huquq tizimlarining o'ziga xos jihatlarini e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir. Boisi, romono-german huquq tizimiga ega bo'lgan ayrim davlatlarda, xususan

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham tergovning ahloqiy ta‘moyillari amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan (bu xususida quyida batavsil).

Raqamli tergovning ahloqiy ta‘moyillari uni amalga oshirish vakolatiga ega bo‘lgan xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning tergov organlari tomonidan belgilangan[18]. Har bir tashkilot doirasida bir necha o‘nlab tamoyil va qoidalar ishlab chiqilgan. Ushbu qoidalardan tergov va sud amaliyotini takomillashtirishda ham foydalanish mumkin.

4-жадвал. Рақамли ахлоқий (этикет) қоидалари жорий этилган халқаро ташкилотлар

Tahlillar ushbu kodekslarda belgilangan tamoyillarning o‘zaro o‘xshash va umumiy xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi (5-jadval). Tergov qilish amaliyoti texnik xususiyatga ega bo‘lganligi bois, ushbu holatni tabiiy deb, qabul qilish mumkin. Bu borada, Sh.Filiponing ushbu kodekslarda ahloqiy (etiket) masalalarga doir ayrim kamchiliklar mavjud, degan fikrini qo‘llab-quvvatlash mumkin. Uning fikricha, guvohlarning ko‘rsatuvlari, (CI, ECC, HTCIA, IACIS, SANS), manfaatlar to‘qnashuvi (HTCIA, IACIS), moliyaviy stavkalar (DFCB, ECC, HTCIA, IACIS, SANS), mijozlar oldidagi javobgarlik (ASDFD, CDFS, HTCIA, IACIS) va qonun talablariga rioya etish (HTCIA, IACIS, SANS) [19] kabi masalalar ochiq qolgan.

5-jadval. Xalqaro tashkilotlarda o‘rnatilgan ahloqiy (etiket) tamoyillari

Mazkur tamoyillarni milliy qonunchilik va tergov amaliyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri joriy etish mumkinmi? Amalda bunga qanchalik ehtiyoj mavjud?

Albatta, O‘zbekiston Respublikasi sharoitida ushbu ta‘moyillarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri milliy qonunchilikka implementatsiya qilinishi biroz munozarali masala hisoblanadi. Boisi, xorijiy davlatlarda tergov qilish vakolatiga nafaqat davlat organlari, balki xususiy sektor vakillari ham ega. Ushbu subyektlar faoliyati fuqarolik huquqiy munosabatlar asosiga, ya‘ni muayyan haq evaziga qurilgan. Buni mijozlar oldidagi javobgarlik masalasini asosiy ta‘moyil sifatida belgilanishi ham tasdiqlab turibdi. Shu bois, raqamli tergovning ahloqiy qoidalarini belgilashda avvalo, mavjud qonunchilikni tahlil qilish va undagi bo‘shliqlarni to‘ldirish maqsadga muvofiqdir.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning raqamli tergov faoliyatiga doir odob-ahloq qoidalarini belgilashda Angliya, Shotlandiya va Shimoliy Irlandiyaning Jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha politsiya va kommissarlar uyushmasi (Association of Police and Crime Commissioners – APCC)[20] tajribasi ham ijobiy natija berishi mumkin. Ta‘kidlash joizki, Buyuk Britaniyaning Raqamli politsiya xizmati tomonidan ishlab chiqilgan qoidalar tergov faoliyatida yangi texnologiyalarni qo‘llash bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi[21].

Kibermuhitda sodir etilgan jinoyat izlarini aniqlash vazifasini sohaga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etmasdan turib hal etish, mumkin emas. Bunda raqamli ma‘lumotlar va axborotlar isbot qilish jarayonining eng qimmatli “aktiv” sanaladi.

Tergov va tezkor-qidiruv faoliyatida yangi texnologiyalardan foydalanish katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish, ularni toifalash hamda real vaqt oralig'i to'g'ri qarorlarni qabul qilish imkoniyatini beradi.

Tom Gesh va Richard Xobs (Tom Gash and Richard Hobbs, 2019) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda aynan ushbu masalalarga e'tibor qaratilgan[22]. Xususan, tadqiqotda politsiya faoliyatga blokcheyn, biometrika, sun'iy intellekt, virtual va 3D texnologiyalarini joriy etish, avtonom transport vositalari, dronlar va uchuvchisiz boshqariladigan xavo vositalari, internet orqali ishlaydigan narsa-buyumlarni qo'llash, shu bilan birga robotlashtirilgan jarayonlarni avtomatlashtirish, ma'lumotlar tahlili, bulutli servis xizmatlari hamda kiberxavfsizlikka doir masalalar bo'yicha tahlillar o'tkazilgan[23].

Shu bilan birga, har bir tamoyil doirasida hal etilishi lozim bo'lgan masalalar ham aniq ko'rsatilgan. Ushbu holat huquq normasini bir hilda qo'llash imkoniyatini beradi[24].

Shu bilan birga, har bir tamoyil doirasida hal etilishi lozim bo'lgan masalalar ham aniq belgilab qo'yilgan. Bunday yondashuv huquqni qo'llash amaliyotida qonun normalarini bir xil va izchil tarzda tatbiq etish imkonini beradi.

Масалан, аниқлик (ассурасй) тамойили доирасида қуйидаги масалаларга эътибор қаратилиши лозим:

1. Texnologiyaga oid spetsifikatsiyalar huquqni muhofaza qilish faoliyatining real ehtiyojlariga mos keladimi?

Texnologiya aniq va legitim huquqni muhofaza qilish ehtiyojidan kelib chiqib joriy etilishi lozim. Agar texnologiya real amaliy vazifaga mos kelmasa, u noto'g'ri qarorlar qabul qilinishiga va resurslarning samarasiz sarflanishiga olib keladi.

2. Algoritmilar va ma'lumotlar aniqligini, ayniqsa ularning dolzarbligini ta'minlash, shuningdek tarafkashlikning oldini olish maqsadida tizimli va muntazam auditlar ish rejasiga kiritilganmi?

Muntazam tekshiruvlar algoritmilarining eskirishi yoki tarafkashlikni kuchaytirishining oldini oladi va aniqlikni saqlashga yordam beradi.

3. Texnologiya yetkazib beruvchi tomonidan algoritmilarining ishlash mexanizmini batafsil tushuntirib bera oladigan malakali ekspert taqdim etilganmi?

Algoritmilarining ishlash mexanizmini tushuntirib bera oladigan ekspert bo'lmasa, qarorlarning qonuniyligi va ishonchliligini baholash qiyin bo'ladi.

4. Xodimlar algoritmik vositalarni o'z kasbiy tajribasi bilan uyg'un holda tushunish, qo'llash va natijalarni to'g'ri talqin etish bo'yicha yetarli darajada tayyorlanganmi?

Xodimlar texnologik natijalarni tanqidiy baholay olishi va ularni o'z kasbiy tajribasi bilan uyg'unlashtira olishi kerak.

5. Noto'g'ri prognozlar yoki moslik natijalarining xavflari, oqibatlarini va maqbullik darajasi aniqlanganmi hamda ularni kamaytirish choralarini belgilash imkoni bormi?

Har qanday algoritm xato qilishi mumkin. Muhimi – xatolarning huquqiy, ijtimoiy va axloqiy oqibatlarini oldindan baholash va ularni minimallashtirishdir.

6. Ma'lumotlar to'plamlari va kuzatuv ro'yxatlarini shakllantirish hamda qayd etish uchun aniq va tushunarli mezonlarga ega tizim mavjudmi?

Shaxslarni ma'lumotlar bazasiga kiritish aniq huquqiy mezonlarga asoslanishi lozim, aks holda noqonuniy kuzatuv va shaxs huquqlarining buzilishi xayfi oshadi.

7. Texnologiyalarda foydalanilayotgan ma'lumotlarning sifati yuqori bo'lishini ta'minlash bo'yicha tashkiliy va texnik choralar ko'rilganmi?

Noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan ma'lumotlar algoritmi aniqligini keskin pasaytiradi.

8. Uchinchi shaxslar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar sifatini tekshirish mexanizmlari mavjudmi, shuningdek ushbu ma'lumotlar rejalashtirilgan huquqni muhofaza qilish ehtiyojlariga mos maqsadda yig'ilganligini aniqlash imkoniyati bormi?

Boshqa tashkilotlardan olingan ma'lumotlar turli maqsadlarda yig'ilgan bo'lishi mumkin. Ularni tekshirmasdan ishlatish qonun buzilishi va noto'g'ri xulosalarga olib keladi.

9. Texnologiya tayanadigan ma'lumotlarning dolzarbligini va muntazam yangilanib borishini ta'minlovchi mexanizmlar mavjudmi hamda ular ma'lumotlarni saqlash siyosatlariga muvofiq keladimi?

Eskirgan ma'lumotlar shaxsga nisbatan asossiz gumon yoki noto'g'ri qarorlar qabul qilinishiga sabab bo'ladi, shuning uchun ma'lumotlarni muntazam yangilash va belgilangan muddatlarda o'chirish muhimdir.

10. Texnologiya bilan ishlovchi shaxslarning zarur ko'nikma, bilim va malakaga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan o'quv-reja mavjudmi?

Xodimlar ma'lumotlar yaxlitligini, yuqori sifatli ma'lumotlardan foydalanishni, algoritmik natijalarni to'g'ri talqin qilishni, algoritmik qarorlarga ko'r-ko'rona ishonmaslikni va texnologiya sabab yuzaga kelishi mumkin bo'lgan adolatsizliklarni anglashni bilishi kerak.

Tadqiqot jarayonida mamlakatdagi huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudlar faoliyati o'rganildi. Tahlillar natijasida, mazkur organlar tomonidan ham bir qator odob-ahloq qoidalari ishlab chiqilgani va joriy etilgani aniqlandi. Har bir organ kesimida qabul qilgan odob-ahloq tamoyillari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 14-oktyabrdagi "Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 595-son qarori muvofiq ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Biroq, ushbu tamoyillar doirasidagi vazifalarining aniq belgilanmaganligi raqamli dalillar tadqiqoti (to'plash, tekshirish va baholash)da turlicha yondoshuvlarni yuzaga keltiradi.

Tahlillar natijasi huquqni muhofaza qiluvchi organlarining amaldagi odob-ahloq qoidalarida muayyn bo'shliqlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, ushbu tamoyillar chegarisining aniq belgilanmaganligi raqamli muhitdagi munosabatlarni tartibga solish muayyn qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudlar tomonidan o'rnatilgan odob-ahloq tamoyillari ham bir-biridan farq qiladi. Misol uchun, odil sudlovni

amalgga oshirishda sudlar tomonidan quyidagi odob-ahloq tamoyillariga[25] amal qilinadi:

Ahloqiy tamoyillarni belgilashdagi mazkur tafovutlar odil sudlovni amalga oshirishda raqamli dalillar tadqiqoti bilan bog'liq turli muammolarni yuzaga keltiradi. Xususan, ushbu muammolar doirasiga tenglik, layoqatlilik, aniqlik, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash yoxud shu kabi boshqa masalalarni kiritish mumkin.

Xulosa

Ta'kidlash joizki, raqamli tergovni tashkil etishning ahloqiy asoslari mamlakatning amaldagi qonunchiligida belgilanmagan. Biroq, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini qabul qilinishi istiqbolda raqamli muhitdagi munosabatlarni huquqiy va ahloqiy jihatdan tartibga solish mexnizmlarini joriy etish va takomillashtirishni taqozo etadi.

Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

birinchidan, raqamli texnologiyalarni tergov faoliyatiga joriy etish bilan bog'liq huquqiy muammolar juda murakkab bo'lib, ushbu holat mutaxassis yondoshuvini talab etadi. Bunda, muammoning huquqiy, tashkiliy, texnik masalalari bilan birga, ahloqiy jihatlari ham tartibga solinishi maqsadga muvofiqdir. Binobarin, har qanday qonunni qo'llash amaliyoti ahloqiy tamoyillar asosiga quriladi;

ikkinchidan, raqamli dalillar bilan ishlashning uslubiy va ahloqiy qoidalari bo'yicha an'anaviy tergov va sud amaliyoti yetarlicha malaka va tajribaga ega emas. Shu bois, amaliyotda yuzaga kelayotgan munosabatlarni tartibga solishda qonunni qo'llovchi o'z intellektual va huquqiy ongiga tayanishga majbur bo'lmoqda. Bu o'z navbatida, tergov faoliyatida turli amaliyotlarni shakllanishiga hamda raqamli dalillarni baholashda to'liq ilmiy asos ega bo'lmagan metod va vositalarni qo'llanilishiga sabab bo'lmoqda;

uchinchidan, raqamli muhitdagi ahloqiy qoidalarni belgilanmaganligi qonunni qo'llovchining raqamli dalillar tadqiqotiga doir faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga salbiy ta'sir etadi. Bu o'z navbatida, raqamli dalillar tadqiqotiga doir natijalarni uchinchi shaxslar tomonidan tasdiqlanishiga[26] to'sqinlik qiladi;

to'rtinchidan, tadqiqotlar mamlakatdagi huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan qabul qilingan odob-ahloq qoidalarini xorijiy ilg'or amaliyotlarga moslashtirish zarurligini ko'rsatadi. Bu borada quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

a) tergov faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo'llash hamda raqamli muhitdagi munosabatlarni to'g'ri tartibga solinishini ta'minlash maqsadida raqamli ahloq (etiket) qoidalarini ishlab chiqish va joriy etish. Bunda, yuqorida ko'rsatilgan tamoyilarga e'tibor qaratish yaxshi natija berishi mumkin;

b) huquqni muhofaza qiluvchi organlarning amaldagi odob-ahloq qoidalariga layoqatlilik, ochiqlik va shaffoflik kabi ta'moyillarni kiritish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, har bir tamoyil doirasidagi vazifalarni aniq belgilash hamda tizimlashtirish qonuni qo'llash sohasidagi xatoliklarni oldini olishga xizmat qiladi.

beshinchidan, raqamli tergovni tashkil etishda quyidagi ahloqiy qoidalarini belgilash maqsadga muvofiq:

raqamli tergovni tashkil etish va raqamli dalillar bilan ishlash tamoyillariga amal qilish;

raqamli dalillarni har tomonlama to‘liq o‘rganish, tahlil qilish hamda faktlarni to‘g‘ri bayon etish;

ishga aloqador bo‘lmagan shaxsga doir ma‘lumotlarni chiqarib tashlash;

isbotlash mumkin bo‘lgan faktlarga asosan xulosa chiqarish[27, 28];

ma‘lumotlarning yaxlitligi va mahfiyligini ta‘minlash;

raqamli dalillar tadqiqotiga doir aniqlik, ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash.

oltinchidan, sudlarda raqamli dalillar bilan ishlashning aniqlik (accuracy) tamoyiliga oid qoidalarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. Texnologiya spetsifikatsiyalarining sud ehtiyojlariga mosligi.

Sud amaliyotida elektron ish yuritish tizimi, raqamli dalillarni tahlil qilish dasturlari yoki prognozlash algoritmlari amaliy ehtiyojlarga to‘liq mos bo‘lishi lozim.

Ilmiy jihatdan bu shuni anglatadiki, texnologiya sud tomonidan hal qilinadigan masalalarga javob berishi kerak. Aks holda, algoritmik xatoliklar qarorlarning qonuniyligi va adolatiga salbiy ta‘sir qiladi.

2. Tizimli va muntazam auditlar.

Sud tizimlarida ishlatilayotgan algoritmlar va ma‘lumotlar bazalari muntazam auditdan o‘tishi kerak.

Auditlar algoritmlarning eskirishi, tarafkashligi yoki noto‘g‘ri ishlash ehtimolini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan sud qarorlarining mustahkamligi va ishonchliligi oshadi.

3. Algoritmlarni tushuntira oladigan ekspert mavjudligi.

Sudlarda ishlatilayotgan raqamli tizimlarning ishlash mexanizmi mutaxassis tomonidan tushuntirilishi zarur.

Bu «qora quti» muammosini bartaraf etadi: sudyalari va advokatlar elektron dalillarni tushunib, xulosalarining qonuniyligini baholay oladi.

4. Xodimlarning algoritmik vositalar bo‘yicha tayyorgarligi.

Sud xodimlari, prokurorlar va advokatlar raqamli dalillarni to‘g‘ri talqin qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur.

Algoritmik vositalar inson kasbiy ekspertizasi bilan uyg‘un ishlashi lozim. Bu xatoliklar va adolatsizliklarni kamaytiradi.

5. Xatolik va oqibatlarini baholash.

Sudlarda raqamli dalillar noto‘g‘ri ishlatilganda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan huquqiy, ijtimoiy va axloqiy oqibatlar aniqlanishi lozim.

Xatoliklarning oldini olish uchun risklarni baholash va minimallashtirish mexanizmlari ishlab chiqilishi zarur, bu esa adolat tamoyilini mustahkamlaydi.

6. Ma‘lumotlar bazasini shakllantirish uchun aniq mezonlar.

Elektron ishlar, guvoh va ayblanuvchi ma'lumotlarini bazaga kiritishda aniq, tushunarli va qonuniy mezonlar asosida ishlash lozim.

Shu bilan subyektiv qarorlar kamayadi va ma'lumotlar bazasi asosida qabul qilinadigan qarorlar qonuniy va adolatli bo'ladi.

7. Ma'lumotlar sifati

Sud tizimlarida ishlatiladigan ma'lumotlar to'liq, aniqlik va ishonchlik talablariga javob berishi zarur.

Noto'g'ri yoki yetarlicha tekshirilmagan ma'lumotlar qarorlar sifatini pasaytiradi va huquqiy xatolarga sabab bo'ladi.

8. Uchinchi shaxs ma'lumotlarini tekshirish

Boshqa tashkilotlardan olingan ma'lumotlar huquqiy jihatdan tekshirilgan va maqsadga mos bo'lishi lozim.

Masalan, politsiya yoki moliya organlarining ma'lumotlari sudda noto'g'ri ishlatilsa, adolatsizlik va qarorlarning qonuniyligi buzilishi mumkin.

9. Dolzarb ma'lumotlar va saqlash siyosati

Sud tizimida ishlatiladigan elektron dalillar muntazam yangilanib borishi va saqlash muddatlariga rioya qilinishi lozim.

Eskirgan ma'lumotlar asosida qarorlar qabul qilinsa, xatoliklar yuz beradi, shuningdek, shaxs huquqlarining buzilishi xavfi ortadi.

10. Kadrlarni kompleks tayyorlash tizimi

Sud xodimlari, prokurorlar va advokatlar raqamli dalillarni to'g'ri tushunish va talqin qilish bo'yicha tizimli o'quv dasturlariga ega bo'lishi lozim.

Bu qarorlar sifatini oshiradi va texnologiyaning noto'g'ri ishlashidan kelib chiqadigan adolatsizliklarni kamaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi "“Raqamli O'zbekiston - 2030” [strategiyasini](#) tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF–6079-son Farmoni.
2. <https://yuz.uz/news/ozbekiston-aholisi-36-million-kishidan-oshdi>
3. Istam Astanov, & Baxtiyorjon Xamidov (2021). Общетеоретический вопрос, связанный с электронными или цифровыми доказательствами: проблема и решение. Общество и инновации, 2 (7/S), 259-278. doi: 10.47689/2181-1415-vol2-iss7/S-pp259-278
4. Khamidov , B. ., & Askerov , B. . (2023). Ethical principles for organizing digital investigation in the process of digital transformation : Uzbekistan and foreign experience. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(4), 917–920.
5. GOST ISO/IEC 29100-2021 Информационные технологии (IT). Методы и средства обеспечения безопасности. Основы защиты персональных данных. 4.2.2
6. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 iyuldagi “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi O'RQ-547-son Qonuni. 2-modda.
7. Toshev, O., & Murodkosimov, B. (2023). Судлар фаолиятини рақамлаштириш одил судловни та'минlashga xizmat qiladi. Sifrovizatsiya deyatelnosti sudov: tekunichiye i perspektivniye zadachi, 1(1), 162–175.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 15 oktyabrdagi “Ichki ishlar organlari faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 645-son qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 avgustdagi “Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yana-da kengroq joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-3250-son qarori.
10. Code of Digital Ethics - Version 1.0 – July 2021 / Merck KGaA, Darmstadt, Germany. P. 3.
11. Telegram tarmog'i orqali o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomalar natijalari.
12. Ferguson, R.I., Renaud, K., Wilford, S. and Irons, A. (2020), "PRECEPT: a framework for ethical digital forensics investigations", Journal of Intellectual Capital, Vol. 21 No. 2, pp. 257-290. <https://doi.org/10.1108/JIC-05-2019-0097>
13. Астанов , И. ., & Хамидов , Б. . (2021). Общетеоретические вопросы, связанные с электронными или цифровыми доказательствами: проблема и решение. Общество и инновации, 2(7/S), 259–278. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss7/S-pp259-278>
14. Бахтиёржон Хамидов (2021). Проверка и оценка результатов цифровой экспертизы. Общество и инновации, 2 (3), 91-97. doi: 10.47689/2181-1415-vol2-iss3-pp91-97.
15. https://strathprints.strath.ac.uk/75129/1/Ferguson_etal_JIC_2020_Precept_framework_ethical_digital_forensics_investigations.pdf

16. Ferguson, R.I., Renaud, K., Wilford, S. and Irons, A. (2020), "PRECEPT: a framework for ethical digital forensics investigations", Journal of Intellectual Capital, Vol. 21 No. 2, pp. 257-290. <https://doi.org/10.1108/JIC-05-2019-0097>
17. ISO/MEK 29100:2011 Informatsionniye texnologii. Metodi obespecheniya bezopasnosti. Struktura konfidentsialnosti.
18. General Principles 1.6 of the ACM Committee on Professional Ethics, 2018.
19. Sharevski, Filipino (2015) "Rules of professional responsibility in digital forensics: A comparative analysis," Journal of Digital Forensics, Security and Law: Vol. 10 : No. 2 , Article 3. P.43. DOI: <https://doi.org/10.15394/jdfsl.2015.1201> Available at: <https://commons.erau.edu/jdfsl/vol10/iss2/3>
20. Sharevski, Filipino (2015) "Rules of professional responsibility in digital forensics: A comparative analysis," Journal of Digital Forensics, Security and Law: Vol. 10 : No. 2 , Article 3. P.43. DOI: <https://doi.org/10.15394/jdfsl.2015.1201> Available at: <https://commons.erau.edu/jdfsl/vol10/iss2/3>
21. <https://www.apccs.police.uk/about-the-apcc/>
22. <https://southyorkshire-pcc.gov.uk/app/uploads/2020/01/Digital-Policing-Ethics-Final-for-PAB-1.pdf>
23. Deloitte survey, responses from chief officer representatives from 9 UK police forces (excludes respondents from national bodies and those not speaking for their force/unable to complete technology questions)
24. <https://www2.deloitte.com/content/dam/Deloitte/ie/Documents/PublicSector/deloitte-uk-policing-4.0.pdf>
25. Deloitte survey, responses from chief officer representatives from 9 UK police forces (excludes respondents from national bodies and those not speaking for their force/unable to complete technology questions) <https://www2.deloitte.com/content/dam/Deloitte/ie/Documents/PublicSector/deloitte-uk-policing-4.0.pdf>
26. O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining 2018 yil 29 yanvardagi SOKQ-490-III-son Qarori bilan tasdiqlangan Sudyalar o‘dob-ahloq kodeksi, 5–10-moddalar.
27. ISO/IEC 27043: Information technology — Security techniques — Incident investigation principles and processes – 10.1.
28. Международная ассоциация специалистов по компьютерным расследованиям